

## JEK LONDONNING “HAYOTGA MUHABBAT”(“LOVE OF LIFE”) ASARIDAGI MORFOLOGIK TRANSFORMATSIYALARINI INGLIZ TILIDAN O’ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-4-2-659-662>

Ismoilova Muyassar

Termiz davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi talabasi

Tel: +998992904502

Email: [muyassarismoilova@gmail.com](mailto:muyassarismoilova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqola jahon adabiyoti durdonalaridan bo‘lgan Jek London qalamiga mansub ”Hayotga muhabbat”(“Love of life”) asaridagi toponimlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolarni tahlil qiladi. Asarda tahlil uchun olingan morfoloqik transformatsiyalarning o‘zbek tiliga o‘girilish jihatlari ko‘rib chiqildi.*

**Kalit so‘zlar:** morfologiya, ingliz tili, o‘zbek tili, asardagi muammolar.

### ABSTRACT

*This article analyzes the problems of translating morphological transformations from English into uzbek in Jack London’s “Love of Live”, one of the masterpieces of world literature. The play examines the morphological transformations of the sentences taken for analysis.*

**Key words:** morphology, english uzbek language, problems in the work.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируются проблемы перевода морфологических трансформаций с английского на узбекский язык в произведении Джека Лондона «Любовь к жизни», одном из шедевров мировой литературы. В пьесе рассматриваются морфологические трансформации предложений, взятых для анализа.*

**Ключевые слова:** морфология, английский узбекский проблемы в работе.

### KIRISH

Tarjima bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi.

Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima kdd. davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan[1].

Jon Griffit Chaney, o‘zining taxallusi Jek London tomonidan 1876 yil 12 yanvarda tug‘ilgan. U amerikalik yozuvchi, badiiy va badiiy bo‘lmagan kitoblar, qisqa hikoyalar, she’rlar, pyesalar va insholar yozgan. U juda samarali yozuvchi edi va 1916 yil 22 noyabrda o‘limidan oldin jahon miqyosida adabiy muvaffaqiyatga erishdi[2].

Amerika yozuvchisi. Yoshligida juda ko‘p kasblar bilan shug‘ullangan. 1893 yilda ilk bor u Yaponiya sohillariga dengiz safariga oddiy matros bo‘lib borgan. 1894 yilda ishsizlarning Vashingtona ko‘chishida qatnashgan, daydilarcha hayot tarzi uchun qamoqqa olingan, siyosiy harakatlarga qo‘shilgan. 1895 yilda AQSh ishchi partiyasi, 1901 yil Sotsalistik partiyaga a’zo bo‘lgan. Keyinroq Kaliforniya universitetiga o‘qishga kiradi va ko‘p o‘tmay o‘qishni tashlab ketadi[3].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mazkur maqola uchun tadqiqot davomida tarjima qiyosiy adabiyot, qarama qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarining izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili ko‘rib, tahlil qilib chiqildi[4].

Ushbu tadqiqot davomida, ko‘plab manbalar kuzatildi. Jumladan, “Badiiy tarjima masalalari”, “Tarjimashunoslik terminlarining ko‘ptilli lug’atma’lumotnomasi” kabi qo’llanmalardan keng tarzda qo’llanildi.

Morfologiya(yun. Morphe-shakl va logiya) (tilshunoslikda). 1) tilning morfologik qurilishi 2)so‘z shakllari haqidagi ta’limot .Birinchi ma’nosida obyektni anglatsa, ikkinchi ma’nosida tilshunoslikning shu obyektni o’rganuvchi bo’limini bildiradi. Til tizimdan iborat bo‘lganidek, uning morfologiyasi ham o’ziga xos tizimni tashkil etadi. O’z navbatida , morfologik tizim ham o’ziga xos tizimlardan tashkil topadi. Ulardan har birining mohiyati yoritilishi bilan, tilning morfologiyasi yaxlit holda, tizim sifatida o’rganiladi[5].

Ingliz tili (inglizcha English)–hind-Yevropa oilanining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tilidir[6].

O‘zbek tili-oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston respublikasining konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi[7].

## NATIJA

Mazkur asarning 23 ta gaplari morfologik tahlil qilindi. Ulardan 17 tasi ot, 16 tasi fe'l, 11-14 ta so'zlari ravish, olmosh, sifatdan iborat. Bundan kamdan kam muammoga duch kelgan qism shuki, ravish fe'l va sifatlar vazifasida kelganidir.

## MUHOKAMA

Asarkeltirilgan deyarli gapda barcha bo'laklar o'z ma'nosida o'rnida qo'llangan.

Morfologik tahlil: *U Billning izidan yurishga intilib, ko'loblarni aylanib o'tar yoki chimliqlarda xuddi orol singari cho'qqayib turgan toshlar ustidan borardi[P.1].*

## 1-JADVAL

	<b>LEKSEMALAR</b>	<b>MORFOLOGIK TAHLIL</b>
1.	U	Olmosh
2.	Billning	Ot+qaratqich kelishigi
3.	Izidan	Ravish
4.	Yurishga	Fe'l
5.	Intilib	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi
6.	Ko'loblarni	Ot+shakl yasovchi
7.	aylanib	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi
8.	O'tar	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi
9.	Yoki	Ayiruv bog'lovchisi
10.	chimliqlarda	Ot+shakl yasovchi
11.	Xuddi	Yuklama
12.	Orol	Ot
13.	Singari	Ko'makchi
14.	Cho'qqayib	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi
15.	Turgan	Fe'l
16.	Toshlar	Ot+shakl yasovchi
17.	Ustidan	Ravish
18.	Borardi	Fe'l

Morfologik tahlil: *Bill tepalikni oshib, ko'zdan g'oyib bo'lguncha, sherigi orqasidan qarab turdi[P.2].[8]*

## 2-JADVAL

	<b>LEKSEMALAR</b>	<b>MORFOLOGIK TAHLIL</b>
1.	Bill	Ot
2.	Tepalikni	Ot+tushum kelishigi
3.	Oshib	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi

4.	Ko'zdan	Ot+chiqish kelishigi
5.	G'oyib	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi
6.	Bo'lguncha	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi
7.	sherigi	Ot+egalik
8.	Orqasidan	Ravish
9.	Qarab turdi	Murakkab fe'l

## XULOSA

Ushbu maqola yozilishidan maqsad, asar haqida qisqacha, ammo, mazmunli ma'lumot berishdir. Ushbu asarning asosiy g'oyasi inson va tabiat o'rtaida hayot uchun kurashdir, garchi odam aql bilan qurollangan bo'lsa ham. Tanqidiy vaziyatlarda bizni instinct yoki hayotga bo'lgan muhabbat boshqaradi. Tabiat zaiflarga rahm, shafqat bilmaydi. Yirtqichlar va o'txo'rlarning huquqlarini tenglashtiradi. Tabiiy, omon qolish nuqtai nazaridan, Bill o'z hayotini qutqarish evaziga do'stiniyarador holida tashlashni to'g'ri deb hisoblardi. Asarning asl mohiyati, so'ngi nafasgacha inson bo'lib qolish muhimroqligini anglatishdir.

## REFERENCES

1. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
2. Nazarova, A. (2022, April). JYUL GABRIEL VERNNING "DUNYO BO'YLAB 80 KUN" ASARIDAGI MORFOLOGIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 531-536).
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Morfologiya>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima>
5. <https://uz.eferrit.com/jek-london-uning-hayoti ва faoliyati/>